

Xorijiy Tillarni O'rganishda To'g'ri Talaffuzni O'zlashtirish Usullari

Maqsudova Shakhnoza

Farg'ona Davlat Universiteti Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Misharibova Mohlaroy Otabek qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ingliz tilini o'rganish davomida to'g'ri talaffuz va talaffuz ko'nikmalarini shakillantirish borasida bir nechta usullar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Hamda bu usullardan qanday tarzda foydalanish va samarali natijalarga erishish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: talaffuz, usullar, samara, ingliz tili, faollik, tovushni ovoz chiqarib aytish, eshitish, yodlash, o'xshamaydigan talaffuz.

KIRISH

Yigirmanchi asrning oxiriga kelib, ingliz tilida jahon ahamiyatiga ega til maqomi nihoyat mustahkamlandi. Va hozirda ingliz tili bizning yurtimizda ham keng tarqalib bormoqda. Yoshlar orasida ingliz tiliga bo'lgan qiziqsh juda kuchli va ushbu til orqali yoshlar yuqori natijalarga va ko'plab imkoniyatlarga erishib kelishmoqda. Mavzuga asoslangan holda ya'ni ingliz tilini o'rganishda talaffuzni shakillantirish yo'li ya'ni talaffuz birligini o'zlashtirish usullari va muammolarni hal qilish talaffuz ko'nikmasini shakillantirish haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. O'qituvchi avvalo o'quvchiga tilni o'rgatishni talaffuzdan boshlashi kerak. Asosan o'qituvchilarni harflarni talaffuzi bilan o'rgatishi va o'quvchilarni tinglab o'rganishi va tushunishi tushuniladi.

Talaffuzni o'zlashtirishda bir nechta usullar bor va ulardan qanday foydalanish haqida ma'lumotlar keltiramiz. Avvalosi bir tilni o'rganish davomida ushbu til bilan muntzam shug'ullanishi va doimo har bir so'zni to'g'ri talaffuzi bilan o'rganishi kerak. Ingliz tilidagi alohida tovushlar va fonetik naqshlarga e'tibor qaratish, qiyin tovusg va so'zlarni sekin va ehtiyotkorlik bilan talaffuz qilishni mashq qilish kerak. Bir nechta usullarini namuna qilib keltirib o'tamiz;

1. Boshqalarni tinglash usuli.

Mahalliy ma'ruzachilarni ko'proq tinglashga harakat qilish, ayniqsa, ular tovushlarni qanday ifodalaydilar shunga e'tibor qaratish ham muhimdir. Ammo faqat boshqalarni tinglash orqali talaffuzni yaxshilashga tezda erishib bo'lmaydi, ko'proq o'quvchini o'zi gapirishi va so'zlarni talaffuzini bir necha bor tinglab o'zlashtirishi lozim. Ingliz tilida so'zlashuvchilar yoki til o'qituvchilardan talaffuz bo'yicha fikr-mulohazalarni so'rang. Va ular xatolarni aniqlashga yordam beradi va qanday qilib yaxshilash bo'yicha ma'lumotlar beradi. Ko'proq ingliz tilidagi teleseriallarni, YouTube kanallarini tomosha qilib, audiokitoblarni tinglash va ayniqsa chet elliklarning nutqiga taqlid qilishga harakat qilishlik tilning talaffuzini o'rganishda eng samarali usul hisoblanadi.

1. O'zingizni tinglash usuli.

So'zlarni qanday talaffuz qilayotganingizni va intonatsiyani qanday amalga oshirayotganingizga e'tibor bering. Agar qiyinchiliklarga duch kelsangiz, o'z ovozingizni ovoz yozish qurilmasiga yozib olib, ovozni bir necha marta tinglang. Shunday qilib, siz o'z zaif tomonlaringizni aniqlab olishingiz, muammoli tovushlar yaxshilash va intonatsiya ustida ishlashingiz mumkin.

2. Ko'zgu oldida mashq qilish usuli.

Ko'zgu oldida o'quvchi o'zi bilan muntazam suhbatlashish qoidasini o'rganib va shu qoidani odatga aylantirishi kerak. Og'zaki nutqni kuzatib borib – til va lablar artikulyatsiyasi qanday o'zgarimoqda shu kabi xususiyatlarni tekshirish kerak. Va ommaviy axborot vositalarining nutqi orqali ham o'rganish mumkin, keyin esa o'z nutqini OAV nutqiga solishtirgan holda takrorlashi zarur va keyin so'zlar artikulyatsiyaga mos keladimi-yo'qligini solishtirish ham mumkin. Bundan tashqari, ko'zgu oldida ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'plab mashqlar mavjud.

3. Ovoz chiqarib o'qish usuli.

Jurnal va kitoblarni ovoz chiqarib o'qish eng effectli usul hisoblanadi. Bu kulgili tuyulishi mumkindir, lekin imkon qadar baland ovoz bilan o'qish kerakligi muhimdir. Shu usul orqali o'quvchi o'zini yaxshiroq eshitadi va so'zlarni yaxshiroq talaffuz qilishga harakat qiladi.

4. Fonetik belgilarni o'rganish usuli.

Lug'atlar va boshqa manbalardagi so'zlarning to'g'ri talaffuzini tushunishingiz uchun ingliz tilidagi tovushlar uchun Xalqaro fonetik alifbo (IPA) belgilari bilan tanishing.

5. Stress va intonatsiyani mashq qilish usuli.

Ingliz tilida nutqdagi urg'u va intonatsiya naqshlariga e'tibor bering, chunki ular so'zlarning talaffuziga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Talaffuzni o'zlashtirish vaqt va kuch talab etadi, shuning uchun o'zingizga sabrli bo'ling va doimiy ravishda mashq qiling. Haqiqiy hayotdagi muloqotlar orqali talaffuz qobiliyatingizni yanada yaxshilash uchun ona ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan iloji boricha gaplashishni mashq qiling. Va yana eng muhim usul bu Twister (Tez aytish) dir. Bu orqali tilni burish, qiyin tovushlarni mashq qilish va artikulyatsiyani yaxshilash mumkin.

Va yana bir nechta asosiy ma'lumotlarga to'xtalib o'tsak, bu o'xshash tovushlar ya'ni talaffuzi o'xshash ammo yozilish jihatidan ikki xil harflar. Ularning talaffuzi o'xshash bo'lgani sabab to'g'ri talaffuz qilishda astoydil shug'ullanish kerak. Misol uchun; **W** va **V** harflari ko'rinish va yozilish jihatidan turli xil ammo talaffuz jihatidan mustahkam o'rganib shug'ullanilmasa xatolik bo'ladi va talaffuzda muammo kelib chiqadi.

[**W**] Window, water, win, without, wine.

[**V**] Vivid, visionary, vital, variety, invaluable.

Yana bir asosiy ma'lumot shuki (TH) tovushlari ya'ni schva tovushlari, bular juda ko'p turli tovushlarni o'z ichiga oladi. Misol qilib o'tilgan (TH) tovushlari ham shu tovush ichiga kiradi. so'zning boshida kelganida turlicha, so'zning o'rtasida kelganida va oxirida kelganida talaffuz jihatidan kata aosos bilan ajralib turadi. Bu tovushda o'quvchilar juda ko'p xatolar qilishadi va bu ularning so'zlarini buzilishiga olib keladi. Bu tovushni talaffuz qilishda tilni tish orasida turgan holatida bajarish kerak.

[**TH**] Think va Sink so'zlari misol bo'la oladi. Bu holatda albatta talaffuzni ajratib ishlata olish kerak bo'lmasa Gapping ma'nosi buzilishiga olib keladi.

➤ **Thick**

➤ **Month**

➤ **Bathe.** Bu holatda ham so'zlar turli xil talaffuz qilinadi.

Albatta tillarni sevib o'rganadigan o'quvchilar uchun bu holatlar qiyinchilik tug'dirmaydi. O'ylaymanki bu talaffuzni o'rganish jarayoni qiziqarli bo'ladi. Ingliz tili albatta chiroyli tillardan biri hisoblanadi shuningdek zerikarli bo'lmaydi. Tepada aytib o'tilgan barcha usul va tamoyillarga qat'iy rioya qilgan holda muntazam shug'ullanilsa albatta o'quvchilarning talaffuzlari Native speaker lar kabi ravon chiqa boshlaydi.

Xulosa

Takomillashtiruvchi mashqlar, davomiy odatlar ya'ni usullarni odat qilib, ular bilan muntazam shug'ullanish kerak. Doimo talaffuz ustida shug'ullanish kerak va Native speaker lar kabi gapirishga harakat qilib ko'plab mashg'ulotlardan foydalanish kerak. Keltirib o'tilgan usullarga tayangan holda muntazam shug'ullanilsa albatta samarali natijaga erisha olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Bulatov.S, Jabbarov.R. (2016). National traditional basis of symbol of Khumo.
2. Jalolov. – ingliz tilini o'qitish metodlari – O'qituvchi nashriyoti Toshkent.
3. Hoshimov.O.H, Yokubov I.YA, Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Tashkent 2003y.
4. A'zamjonovna, Y.S. (2022). Ingliz tilida emotsiyalarning Grammatik ifodalanishi. Pedagog's Journali.